O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING
QARORI

2025-yil 17-aprel | 278-10-0-Q/25 | Toshkent viloyati hokimiligi

Viloyatning ayrim aholi yashash hududlaridan tashqarida avtomobillar tezligini kaymaytirish to‘g‘risda

Hududlardagi avtomobil yo‘llarida yo‘l-transport hodisalarini oldini olish, ayrim aholi yashash hududlaridan tashqarida avtomobillar tezligini soatiga 100 kilometrdan, 80 kilometr soatga kamaytirish hamda viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2025-yil 7-martdagi 25/12-840-sonli murojaat xati bilan 37 ta yo‘l qismlari tahlil qilinib, og‘ir oqibatli yo‘l transport hodisalari sodir bo‘layotganligi ma’lum qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori (80-bandi) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2025-yil 7-martdagi 25/12-840-sonli murojaat xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, viloyatning 37 ta yo‘l qismlaridagi ayrim aholi yashash hududlaridan tashqarida avtomobillar tezligi 100 kilometrdan, 80 kilometrgacha kamaytirish to‘g‘riisdagi taklifi maqullansin hamda yo‘llar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (J. Bekmurzayev) avtomobillar tezligi kamaytirilayotgan aholi yashash hududlaridan tashqarida joylashgan umumiy foydalanshdagi avtomobil yo‘llariga 3.24 “yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarini amaldagi talablar asosida besh kun muddatda o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Sadirov) tezligi kamaytirilayotgan aholi yashash hududlaridan tashqarida cheklagan tezlikda avtomobillar harakatlanishini nazorat qilish uchun shaxsan mas’ul etib belgilansin.

5. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudovga hamda viloyat hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruhi rahbari F.Mirzayev zimmalariga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 17-apreldagi
278-10-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Viloyatning 37 ta yo‘l qismlari dagi ayrim aholi yashash hududlaridan tashqarida avtomobillar tezligi 100 kilometrdan, 80 kilometrgacha kamaytirilayotgan yo‘llar

RO‘YXATI

T/R	Yo‘l nomi	tezlik kamaytirilgan yo‘l oralig‘i (km)
1	O‘rta Chirchiq tumani hududidan o‘tgan A-373a avtomobil yo‘lining	33-37 km.lar oralig‘i
2	O‘rta Chirchiq tumani hududidan o‘tgan 4R-2 avtomobil yo‘lining	12-13 km.lar oralig‘i
3	O‘rta Chirchiq tumani hududidan o‘tgan 4R-2 avtomobil yo‘lining	16-18 km.lar oralig‘i
4	O‘rta Chirchiq tumani hududidan o‘tgan 4R-2 avtomobil yo‘lining	28-29 km.lar oralig‘i
5	O‘rta Chirchiq tumani hududidan o‘tgan 4R-2 avtomobil yo‘lining	34-38 km.lar oralig‘i
6	Ohangaron tumani hududidan o‘tgan A373 avtoyo‘lining Alisher MFY hududi	107-109 km oralig‘i
7	Oqqo‘rg‘on tumani hududidan o‘tgan A-373 avtomobil yo‘lining	61-67 km.lar oralig‘i
8	Oqqo‘rg‘on tumani hududidan o‘tgan 4R-22 avtomobil yo‘lining	16-17 km.lar oralig‘i
9	Oqqo‘rg‘on tumani hududidan o‘tgan 4R-22 avtomobil yo‘lining	30-31 km.lar oralig‘i
10	Oqqo‘rg‘on tumani hududidan o‘tgan 4R-24 avtomobil yo‘lining	38-41 km.lar oralig‘i
11	Oqqo‘rg‘on tumani hududidan o‘tgan 4R-24 avtomobil yo‘lining	44-46 km.lar oralig‘i
12	Oqqo‘rg‘on tumani hududidan o‘tgan 4R-24 avtomobil yo‘lining	57-60 km.lar oralig‘i
13	Parkent tumani hududidan o‘tgan 4R-15 avtomobil yo‘lining	39-48 km.lar oralig‘i
14	Parkent tumani hududidan o‘tgan 4R-15 avtomobil yo‘lining	44-53 km.lar oralig‘i
15	Parkent tumani hududidan o‘tgan 4R-254 avtomobil yo‘lining	0-5 km.lar oralig‘i
16	Parkent tumani hududidan o‘tgan 4R-16 avtomobil yo‘lining	23-27 km.lar oralig‘i
17	Yangiyo‘l tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	831 km.lar oralig‘i
18	Yangiyo‘l tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	832 km.lar oralig‘i

19	Yangiyo‘l tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	824 km.lar oralig‘i
20	Yangiyo‘l tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	835-836 km.lar oralig‘i
21	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	849-850 km.lar oralig‘i
22	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	855-856 km.lar oralig‘i
23	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	857-858 km.lar oralig‘i
24	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	859-860 km.lar oralig‘i
25	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	864-865 km.lar oralig‘i
26	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	866-867 km.lar oralig‘i
27	Chinoz tumani hududidan o‘tgan M-39 avtomobil yo‘lining	869-870 km.lar oralig‘i
28	Nurafshon shahar hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	7-8 km.lar oralig‘i
29	Piskent tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	9-10 km.lar oralig‘i
30	Piskent tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	12-14 km.lar oralig‘i
31	Piskent tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	23-24 km.lar oralig‘i
32	Piskent tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	27-28 km.lar oralig‘i
33	Piskent tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	31-32 km.lar oralig‘i
34	Bo‘ka tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	37-38 km.lar oralig‘i
35	Bekobod tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	55-56 km.lar oralig‘i
36	Bekobod tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	63-64 km.lar oralig‘i
37	Bekobod tumani hududidan o‘tgan 4R-20 avtomobil yo‘lining	55-56 km.lar oralig‘i